

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

«Tasdiqlayman»

Muhammad al-Xorazmiy  
nomidagi TATU rektori  
B.Sh. Maxkamov

« \_ » \_\_\_\_\_ 2024 y.

ILMIY-TEXNIK KENGASH

**N I Z O M I**

TOSHKENT 2024

## I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom 2019-yil 29-oktabrdagi 576-sonli O‘zbekiston Respublikasi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 545-sonli qarorlariga muvofiq tuzilgan.

2. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining (keyingi o‘rinlarda - Universitet) Ilmiy-texnik kengashi (keyingi o‘rinlarda - ITK) va uning tarkibi Universitet Kengashi qaroriga binoan Rektor tomonidan tasdiqlanadi.

3. ITK o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalar, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari, Universitet rektorining buyruqlari, shuningdek mazkur Nizom asosida olib boradi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

- **ilmiy-texnik kengash** - ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha Buyurtmachining ilmiy siyosatini amalga oshirishga va ishlab chiqishga, "startap" loyihalarni baholashga, ekspertiza qilishga va natijalarini amalga oshirish ishlarini monitoring qilishga ko‘maklashuvchi, o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, yetakchi olimlar, ekspertlar, mutaxassislar hamda davlat organlarining yuqori malakali mutaxassislaridan iborat tarkibdagi ilmiy-texnik jamoa;

- **ilmiy loyiha** — ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha asoslantirilgan qaror qabul qilish maqsadida uni o‘rganish, tahlil qilish, baholash va xulosa tayyorlashga qaratilgan faoliyat;

- **monografiya** — yagona yoki bir nechta mualliflar, ilmiy muammo yoki mavzularga tegishli to‘la va hartomonlama chuqur izlanishlarga

bag'ishlangan ilmiy yoki ilmiy-ommabop nashr.

5. Ushbu ITKning strukturasi, maqsadi, vazifalari, funksiyalar va tashkil etish qoidalari mazkur nizomga asoslangan holda belgilanadi.

6. ITK tarkibiga Universitetning ilmiy salohiyatli, amaliy tajribalar vailmiy maktablarga ega bo'lgan professor-o'qituvchilari va olimlari kiradi.

7. Mazkur ITK Nizomi Universitet rektori tomonidan tasdiqlangan vaqtdan boshlab qonuniy kuchga ega hisoblanadi.

## **II. ITK maqsadi, vazifalari va funksiyalari**

8. Ilmiy texnik kengashning maqsadi professor o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, doktorantlar hamda magistratura talabalari faoliyati va Universitetda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirishdan iborat.

9. ITK vazifalari quyidagilardan iborat:

- ITKning yillik rejasi ITK a'zolari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi;
- Universitet kafedralari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot va ilmiy- uslubiy ishlarni muvofiqlashtirib boradi;

- Universitet fakultetlari hamda kafedralarining ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha hisobotlarini eshitadi, muhokama qiladi va ular yuzasidan tegishli qaror qabul qiladi;

- Davlat byudjetidan moliyalashtirilishi rejalashtirilgan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalari bo'yicha Innovatsion rivojlanish agentligi hamda chet el jamg'armalari, tarmoq vazirliklari va korxonalar tomonidan e'lon qilingan tanlovlar talablariga to'g'ri keladigan loyihalarni o'rganib chiqadi, muhokama qiladi, tavsiya va xulosalar beradi;

- Davlat byudjetidan moliyalashtirilayotgan fundamental, amaliy va innovatsion hamda xo'jalik shartnomalari asosida bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining yillik hisobotlarini muhokama qiladi, istiqbolli rejalarni ko'rib chiqadi va tegishli qarorlar qabul qiladi;

- yil yakuni bo'yicha fakultetlar, kafedralar, markazlar hamda laboratoriyalar ilmiy va innovatsion faoliyatining yillik hisobotlarini tinglaydi, muhokama qiladi, ular haqida xulosa beradi hamda keyingi yilda ilmiy izlanishlar sifatini oshirish

yo‘llarini belgilaydi. Shuningdek, oraliq va yakuniy hisobotlarni tahlil qilish, har bir ilmiy-tadqiqot loyihasi amalga oshirilishini monitoring qilish yoki loyihalarni tugatish, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish va loyihalarni moliyalashtirishni davom ettirish bo‘yicha buyurtmachilarga xulosa kiritishi mumkin.

- xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy anjumanlar, seminar va simpoziumlar tashkil etish bo‘yicha yillik va istiqbolli rejalarni ko‘rib chiqadi, Universitet Kengashiga takliflar beradi;

- kafedralar bilan ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlikni ta‘minlashda hamda iqtisodiy samara beradigan innovatsion loyihalar natijalarini amaliyotga joriy qilish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar beradi;

- jahon standartlari talablari doirasida nazariy yoki amaliy ilmiy-texnik ahamiyatga molik natijalarga erishayotgan, Scopus, Web of Science, Springer va shu kabi axborot bazalariga kiritilgan jurnallar hamda yuqori impakt-faktorli jurnallarda maqolalar chop etgan professor-o‘qituvchilar, doktorantlar va yosh olimlarni va ilmiy faoliyatda ilg‘or kafedralar faoliyatlarini rag‘batlantirish bo‘yicha Universitet Kengashiga takliflar beradi;

- o‘z faoliyati doirasida yechimi topilmagan tashkiliy va dolzarb ilmiy-texnik muammolarni Universitet Kengashiga muhokama uchun olib chiqadi;

- Davlat mukofoti hamda xalqaro va respublika miqyosida beriladigan boshqa mukofotlarga taqdim etiladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini ko‘rib chiqadi, tanlaydi va tavsiya qiladi;

- fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari asosida yaratilgan va Universitetning ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlangan o‘quv-uslubiy, dasturiy, ko‘rgazmali materiallarni, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar beradi;

- oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlar (tayanch doktorant (PhD) va doktorant (DSc)) tayyorlash bo‘yicha tegishli bo‘lim va fakultetlar ilmiy kengashlari hisobotini tinglaydi, oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning istiqbolli rejasini muhokama qiladi, tegishli tavsiyalar beradi va tasdiqlaydi;

- zamonaviy ilmiy laboratoriyalar, ilmiy markazlar va kichik korxonalar, ijodiy jamoalar va qo'shma korxonalarni tashkil etish bo'yicha takliflarni ko'rib chiqadi va tavsiyalar beradi;

- Respublika va xorijiy davlatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma hamda ko'rik tanlovlarida qatnashish uchun istiqbolli ishlanmalarni tanlaydi va Universitet kengashiga tavsiya etadi;

- Universitet ta'sischi ligida chop etiladigan ilmiy- amaliy jurnallarining nufuzini oshirish, kelgusida jurnalda chop etilayotgan ilmiy maqolalarning saviyasi va sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish maqsadida jurnalning tahririyat a'zolari tarkibiga soha bo'yicha chet ellik olimlarni taklif etish hamda impakt-faktor ko'rsatkichlarini ko'tarish bo'yicha takliflar kiritadi;

- Universitet bazasida tashkil etilgan ilmiy laboratoriyalari faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar monitoringini olib boradi;

- Yosh olimlar kengashining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi, chet tillarini mukammal egallagan yosh olimlar guruhlarini shakllantiradi, ularni rivojlangan xorijiy davlatlar oliy o'quv yurtlari hamda ilmiy markazlariga stajirovkaga yuborish bo'yicha tavsiyalar beradi, stajirovka rejasini tasdiqlaydi va hisobotlarini eshitadi;

- kafedralar, ilmiy bo'linmalar, ilmiy markazlar, ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va ilmiy guruhlarining hisobotlarini tinglaydi, ularning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish, faoliyat samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha Universitet Kengashiga takliflar beradi;

- dolzarb ilmiy-texnikaviy muammolarni, yangi texnologiyalar yaratish va universitet ishlanmalaridan ishlab chiqarishda foydalanishni kengaytirish maqsadida ilmiy, ta'lim va boshqa tarmoq tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek birgalikda yechimini topish masalalarini ko'rib chiqadi.

### **III. ITK tarkibi va tuzilmasini tashkil etish**

10. Ilmiy-texnik kengash tarkibiga Ilmiy-texnik kengash raisi, kotibi, rais o'rinbosari va a'zolari kiradi.

11. Universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori - ITK raisi hisoblanadi.

12. Universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori tavsiyasiga ko'ra rais o'rinbosari, kotib va kengash a'zolari Rektor buyrug'i asosida 1 yilga tasdiqlanadi.

13. ITK raisi:

- ITK faoliyatini tashkil etadi;
- ITK qarorlarining bajarilishini doimiy nazorat qiladi;
- ITK qarorlarining bajarilishi to'g'risida ITK a'zolariga ma'lumot beradi;

14. ITK raisi o'rinbosari:

- Ilmiy texnik kengash raisi majlisda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lmagan vaqtda yig'ilishni Rais sifatida boshqarish imkoniga ega.

15. Ilmiy daraja yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan, universitetda ish tajribasiga ega, akademik ilmiy doiralarda (xususan) tan olingan mutaxassis (olim) bo'lgan universitet xodimlari, mahalliy va xorijiy nashrlarda ko'plab ilmiy nashrlarga ega bo'lgan hamda ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilgan va boshqa xizmatlari e'tirof etilgan (davlat mukofotlari, faxriy ilmiy-pedagogik unvonlar va boshqalar) Ilmiy-texnik kengash a'zolari bo'lishi mumkin.

16. ITK o'z faoliyati bo'yicha yilda bir marta hisobot tayyorlab, belgilangan tartibda Universitet kengashiga taqdim etadi.

17. ITK Davlat tilida ish yuritadi. ITK o'z faoliyatini yuritish davomida rus tilini amaliyotda qo'llashi mumkin.

18. Ilmiy texnik kengash tarkibining o'zgarishi va to'ldirilishi Universitet tomonidan qabul qilinadigan buyruq bilan amalga oshiriladi. Ilmiy texnik kengash a'zosi egallab turgan lavozimidan bo'shagan hollarda, u Ilmiy texnik kengash tarkibidan avtomatik tarzda chiqariladi.

#### **IV. ITK a'zolarining huquq va majburiyatlari**

19. Ilmiy texnik kengash huquqlar:

- Kun tartibiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish, natijalariga ko'ra o'z qarorlarini qabul qilish, xulosa, taklif va tavsiyalar berish;

- kengash majlisiga masalalarni tayyorlash va tizimga solish;
- zarurat bo'lganda Ilmiy-texnik kengash muhokamasiga kiritilgan masalani

yanada puxta ishlab chiqish va ekspert hulosasini shakllantirish uchun Ilmiy-texnik kengash tarkibiga kirmaydigan vakolatli mutaxassislarni, shu jumladan xorijiy ekspert mutaxassislarni jalb etish;

- zarurat bo'lganda, ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha Ilmiy-texnik kengash tarkibiga kirmaydigan mutaxassislarning ma'ruzalarini eshitish;

- Ilmiy-texnik kengash vakolati doirasidagi masalalarni ko'rib chiqish bo'yicha belgilangan tartibda majlislar tashkil etish.

#### 20. Ilmiy-texnik kengash raisi huquqlari:

- zarurat bo'lganda mustaqil ekspertlarni jalb etish;
- Ilmiy-texnik kengash kun tartibi va majlis bayonnomalarini tasdiqlash;
- Ilmiy-texnik kengash a'zolari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni tasdiqlash, ular bo'yicha tavsiyalar berish;

- mazkur nizomga asosan Ilmiy-texnik kengashga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish;

#### 21. Ilmiy-texnik kengash a'zolari quyidagi huquq va vakolatlarga ega:

- Ilmiy-texnik kengash qarorlarini tayyorlashda qatnashish va o'z hulosasini berish;

- Ilmiy-texnik kengash ishlarida ularning vakolatiga kiradigan masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

- Ilmiy-texnik kengash majlislarida muhokama qilish uchun savollar tavsiya qilish;

- Ilmiy-texnik kengash majlisida ko'rib chiqish uchun tayyorlangan materiallar bilan oldindan tanishish;

#### 22. Ilmiy-texnik kengash a'zolari majburiyatlari:

- kun tartibidagi masalalarni puxta va har tomonlama ko'rib chiqish jarayonida Kengash qarorlariga taklif kiritish;

- Ilmiy-texnik kengashning bevosita majlislariga kelishni ta'minlash;

- taqdim etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishda maxfiylik shartlariga rioya qilish;

- Ilmiy-texnik kengash a'zolari Ilmiy-texnik kengash majlisida ko'rib

chiqiladigan masalalar bo'yicha qabul qilinadigan qaror va hulosalarning qonunchilikka muvofiqligi uchun mas'uldir;

23. Ilmiy-texnik kengash a'zolari Davlat siri maqomiga ega, tarqatilishi cheklangan "xfu" ustxatli hamda maxsus patent olish uchun tavsiya etiladigan ilmiy-tadqiqot natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etmasliklari shart.

## **V. ITK faoliyatini boshqarish**

24. Ilmiy-texnik kengashining yillik ish rejalari ITK majlisida ko'rib chiqiladi va ITK raisi yoki rais o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. ITK tasdiqlangan reja asosida faoliyatini tashkil etadi.

25. ITK majlislarini kengash raisi yoki rais o'rinbosari olib boradi. Majlis bo'yicha bayonnoma va qarorlar rasmiylashtiriladi hamda ITK raisi yoki rais o'rinbosari va ma'sul kotib tomonidan imzolanadi.

26. ITK tarkibiga hamda ish rejasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish ITK qarori bilan qabul qilinadi va rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

## **VI. ITK majlislarini o'tkazish tartibi**

27. ITK majlislari har chorakda bir martadan kam bo'lmagan holda va zarurat bo'lganda navbatdan tashqari holatda o'tkaziladi.

28. ITK raisi yoki uning o'rinbosari tomonidan kun tartibidagi masalalarning mohiyati va yo'nalishini e'tiborga olib, qarorlar loyahasini tayyorlash uchun ITK a'zolaridan iborat guruh tuzadi.

29. Ilmiy kotib, majlis bo'lib o'tadigan kundan bir hafta oldin, ITK a'zolariga majlis o'tkazilishini ma'lum qiladi, ko'riladigan masalalar va ma'ruzachilar ko'rsatilgan majlis kun tartibi hamda majlis qarorlari loyahasini ITK a'zolariga taqdim etadi.

30. Majlisda qatnashgan ITK a'zolari qayd varaqasiga binoan hisobga olinadi.

31. ITK majlisining kun tartibidagi masalalar bo'yicha qarorlari majlisda ishtirok etayotgan ITK a'zolarining 3 dan 2 qismidan kam bo'lmagan ovoz berilgan taqdirdagina qabul qilingan hisoblanadi.

32. ITK majlisiga qo'yiladigan masalalar, yillik rejani va yechilishi lozim

bo'lgan dolzarb ishlarni inobatga olgan holda, puxta tayyorlangan bo'lishi lozim.

33. Majlis kun tartibidagi masalalar yuzasidan mas'ul ijrochilar biriktirilgan va aniq muddatlar ko'rsatilgan qarorlar qabul qiladi.

34. ITK majlisi qarori majlisda ishtirok etayotgan ITK a'zolarining ochiq yoki yopiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

35. ITK majlisida kun tartibidagi biror masala bo'yicha qaror loyihasi 29- bandga binoan qabul qilinmasa, mazkur masala navbatdagi yoki keyingi boshqa majlislarda ko'rib chiqiladi.

36. ITK majlisi bayonnomasi hamda qarorlari rais yoki uning o'rinbosari va ilmiy kotib tomonidan imzolanadi.

37. Ilmiy kotib tomonidan, ish yuritish tartibiga binoan, ITK majlisi qaroridan ko'chirmalar mas'ul ijrochilarga beriladi va bajarilish monitoringi olib boriladi.

## **VII. Yakuniy qoidalar**

38. ITK faoliyati yilda bir marotaba Universitet Kengashida muhokamaga qo'yiladi va natijalari yuzasidan tegishli qaror qabul qilinadi.

39. Mazkur Nizomga kiritilgan o'zgartirishlar Universitet Ilmiy kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi, shuningdek Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

40. ITK faoliyatini tugatish Universitet Kengashi qarori asosida rektorning buyrug'i bilan amalga oshiriladi.